O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ
TA’LIMI VAZIRLIGI

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2010-yil 1-iyuldagi qo‘shma hay’at majlisi qarori bilan tasdiqlangan.

# ONA TILI

## UZVIYLASHTIRILGAN O‘QUV DASTURINI JORIY ETISH BO‘YICHA TAVSIYA VA TAQVIM-MAVZU REJALAR

(5–9-sinflar)

TOSHKENT – 2010

74.264.02

O 18

*Tuzuvchilar:*

M. ABDURAIMOVA, G. ZIYODULLAYEVA

*Nashr uchun mas'ullar:*

Y. ASADOV, I. ZOKIROV, N. TURDIYEV, A. ASQAROV

*Muvofiqlashtiruvchilar:*

G. USMONOVA, M. VAHOBOV

O 18 **Ona tili:** uzviylashtirilgan o'quv dasturini joriy etish bo'yicha tavsiya va taqvim-mavzu rejalar (5–9-sinflar) / O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Respublika ta'lim markazi. T.: «Sharq». – 52 b.

I. Abduraimova, M.

**ББК 74.264.02**

**ISBN 978-9943-00-593-8**

© «Sharq» NMAK Bosh tahririyati, 2010.

# KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 16-avgustdagi 390-sonli qarori bilan tasdiqlangan Umumiy o‘rta ta’limning Davlat ta’lim standartlariga berilgan sharhlar «2004–2009-yillarda Maktab ta’limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi» doirasida qayta ko‘rib chiqildi. Tahlillar asosida Davlat ta’lim standartlari bo‘yicha o‘quvchilar o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar bir-biridan ajratildi hamda sinflar kesimida alohida-alohida belgilab berildi.

«Barkamol avlod yili» Davlat dasturi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat maslahatchisi xizmati va Vazirlar Mahkamasi Ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy muhofaza, axborot tizimlari va telekommunikatsiyalar kompleksining 2010-yil 17-martdagi qo‘shma yig‘ilishi bayonida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida, yuqori kasb mahoratiga ega o‘qituvchilar, yetakchi olim va mutaxassislarni jalb etgan holda, barcha yo‘nalishlar bo‘yicha ishchi guruhlari tuzildi.

Mazkur ishchi guruhlar tomonidan umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining Davlat ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari va darsliklari uzviyligi, uzluksizligi hamda o‘quvchilarning yosh va psixofiziologik xususiyatlariga mosligi ikki bosqichda tahlil qilindi.

**Birinchi bosqichda** umumiy o‘rta ta’limda o‘qitiladigan 24 ta o‘quv fani bo‘yicha DTS, o‘quv dasturi va darslik mazmuni sinflar kesimida tahlil qilinib, tegishli xulosa va takliflar tayyorlandi.

**Ikkinchi bosqichda** o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida o‘rganilishi davom etadigan 17 ta umumta’lim fanlari, jumladan, ona tili fani bo‘yicha umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’limning Davlat ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari uzviylik va uzluksizlik jihatidan tahlil qilinib, o‘quvchilarning ta’lim bosqichlarida egallashlari lozim bo‘lgan bilimlarining hajmi optimallashtirildi.

Ishchi guruhlar xulosalari va tahlillari, ilmiy-metodik Kengash tavsiyalari asosida umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5, 8, 9-sinflarida ona tili fanidan jami 10 soat hajmdagi 10 ta mavzu optimallashtirildi. Shundan, 4 soat mavzu murakkab deb topilib, unga qo‘shimcha soatlar ajratildi (takrorlashlar hisobidan), 6 ta mavzu kasb-hunar kollejlari va akademik litsey o‘quvchilari yoshiga xosligi sababli umumiy o‘rta ta’lim dasturidan chiqarildi. Mazkur o‘zgarishlar 5, 8, 9-sinflarda amalga oshirildi.

Ushbu risolada ona tili fanidan uzviylashtirilgan o‘quv dasturini amalga joriy etish bo‘yicha tavsiyalar va taqvim-mavzu berilgan.

# 5-SINF O‘QUV DASTURIGA KIRITILGAN O‘ZGARTIRISHLAR BO‘YICHA TAVSIYALAR

I. Taqvim-mavzu rejadagi 57-dars – «Ko‘chirma gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi» mavzusi bo‘yicha ikkinchi mashg‘ulot amaldagi darslikning «Sintaksis va punktuatsiya» bo‘limi oxirida takrorlash uchun ajratilgan soat hisobidan tashkil etiladi. Darslikdagi (75-bet) 63-dars – «Ko‘chirma gaplar» mavzusini takrorlash uchun berilgan mashqlar taqvim-mavzu rejadagi 62-dars «Undalma, kirish so‘zlar» mavzusini takrorlash darsiga singdirib o‘rganiladi. Taqvim-mavzu rejadagi 57-darsda quyidagi materiallardan foydalanish tavsiya etiladi:

## 57-dars. **Ko‘chirma gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi (ikkinchi mashg‘ulot)**

**201[a]-mashq.** Qo‘shtirnoqlar ichiga ko‘chirma gaplar qo‘yib yozing.

1. Sobir Nafisadan so‘radi: «…?» 2. Nafisa javob berdi: «…». 3. Sobirjon iltimos qildi: «…» 4. Sinf rahbarimiz dedi: «…». Onasi o‘g‘liga dedi: «…» 6. Ukasi opasiga yalindi: «…».

**Esda tuting.** Muallif gapi ko‘chirma gapdan oldin kelsa, undan so‘ng ikki nuqta qo‘yiladi va ko‘chirma gap qo‘shtirnoq ichiga olinadi.
Ko‘chirma gap so‘roq yoki undov gaplar bo‘lsa, so‘roq va undov belgilari gapning oxiriga qo‘yiladi, so‘ngra qo‘shtirnoq yopiladi. Ko‘chirma gap darak gap bo‘lsa, nuqta yoki vergul qo‘shtirnoqdan keyin qo‘yiladi.

**201[b]-mashq.** Kerakli o‘rinlarda tinish belgilarini qo‘yib ko‘chiring.

1. Senga nima bo‘ldi dedi u Asrorning sochini silab (T.M.) 2. Vazir makkorona kulimsirab o‘z qudratingizga ishoning dedi (Ertakdan). 3. Cho‘pon ota jahli chiqib dedi Janob vazir bizni o‘z holimizga qo‘ysangiz bo‘lardi. 4. Shohista kulib dedi Kel chin o‘rtoq bo‘laylik.

**201[d]-mashq.** Gaplarni o‘qing. Ko‘chirma gap muallif gapidan keyin kelgan gaplarni ko‘chiring. Bunday gaplarda qanday tinish belgilari qo‘llanishini izohlang.

1. O‘qituvchimiz dedi: «Kim halol mehnat qilsa, obro‘ topadi». 2. «Sen mening suyangan tog‘imsan, o‘g‘lim», – derdi hamisha onam. 3. «Qidirsakmikan-a, – dedi Amin, – suyunchisi nima bo‘ladi?» 4. Bobom zimdan sinchiklab razm solib o‘tiradi va uzoq sukunatdan keyin onamga qarab deydi: «O‘g‘ling ziyrak, Shahodat, mulla qilamiz o‘g‘lonni» (O).

**201-mashq.** Qo‘shtirnoqlar ichiga muallif gapining mazmuniga mos ko‘chirma gaplar qo‘yib, ko‘chiring.

1. «…», – dedi otasi. 2. «…?» – so‘radi o‘rtog‘i. 3. «…», – xitob qildi Botirjon. 4. «…», – dedi onasi.

**Esda tuting.** Muallif gapi ko‘chirma gapdan keyin kelganda, undan so‘ng qo‘shtirnoq yopiladi va vergul hamda tire qo‘yilib, muallif gapi yoziladi. Agar ko‘chirma gap so‘roq yoki undov gap bo‘lsa, vergul tushirib qoldiriladi. So‘roq, undov belgilari qo‘shtirnoqdan oldin qo‘yiladi.

**Uyga vazifa: 201$^{f}$-mashq.** Ko‘chiring. Berilgan gaplardagi muallif gapi va ko‘chirma gapni aniqlang. Ularda tinish belgilarining qo‘llanishiga e’tibor bering.

1. «Sog‘ tanda sog‘lom aql», – deydi dono xalqimiz. 2. «Juda to‘g‘ri, haq gap, – dedi boshi bilan tasdiqlab Boltaboyev, – hamma yutuqlarimiz birlik orqasidan kelayotir» (O.) 3. Uy egasi Muqbildan so‘rabdi: «Yaxshi yigit, Hotam Toyga nima ishingiz bor edi?» (Ertakdan) 4. Hasan so‘fi: – «Tor yerda osh yeguncha, keng yerda musht ye, deganlar». (M.Ism.)

II. Taqvim-mavzu rejadagi 148-dars – «Urg‘u va uning turlari» mavzusi bo‘yicha ikkinchi mashg‘ulot amaldagi darslikning «Fonetika, Grafika» bo‘limi oxirida takrorlash uchun ajratilgan soat hisobidan tashkil etiladi. Darslikdagi (166-bet) 154-dars – «Qo‘sh va qator undoshlar talaffuzi hamda imlosi» mavzusini takrorlash uchun berilgan mashqlar taqvim-mavzu rejadagi 153-dars «Ayrim undoshlar talaffuzi va imlosi» mavzusini takrorlash darsiga singdirib o‘rganiladi. Taqvim-mavzu rejadagi 148-darsda quyidagi materiallardan foydalanish tavsiya etiladi:

## 148-dars. **Urg‘u va uning turlari (ikkinchi mashg‘ulot)**

**Topshiriq:** O‘qing. Urg‘u qaysi bo‘g‘inga tushayotganini ayting.

Gapir, boshla, borgin, keling, kelsin, boray, keldi, olti, to‘qqiz, ikki

**Eslab qoling:** Urg‘u so‘zlashuv nutqida nutq ta’sirchanligini oshiradi.

**454$^{a}$-mashq.** Quyidagi grammatik topishmoqlarni ko‘chiring va tagiga chizilgan so‘zlarning qaysi bo‘g‘iniga urg‘u tushganini aniqlang.

**So‘zlar** bor **yozma** nutqda
Kichik birinchi harfi
Gap boshida kelganda,
Ulg‘ayar kichik harfi

**Kimningdir** o‘sgan sochi,
O‘ylab ko‘ring-chi,To‘ychi,
Qaysisi so‘z yasovchi?

Tub yasama bo‘ladi,
**Qo‘shma-yu** juft bo‘ladi,
Predmet, harakat belgi.
Ma’nosin bildiradi.

**Bilib oling:** O‘zbek tilida yuklamalar (-ku, -u, -yu,- da, -mi,-chi), ravish hosil qiluvchi qo‘shimchalar (-chi, -day (-dek) ), shakl yasovchi qo‘shimchalar (-dir, -man, -san, -miz, -siz, -ma) urg‘u olmaydi.

**454$^{b}$-mashq.** Berilgan so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing va urg‘u tushgan bo‘g‘inni aniqlang. Ushbu so‘zlardagi qo‘shimchalarning turini ayting.

Mardlarcha, gavhardek, qaynatma, menku, senmi, bildir, o‘qiymiz, borma.

**Uyga vazifa: 454$^{d}$-mashq.** «Halollik nima?» mavzusida matn tuzing va matndan ayrim so‘zlarni tanlab, urg‘u tushgan bo‘g‘inni belgilang.

III. Taqvim-mavzu rejadagi 168-dars – «Ma’nodosh so‘zlarda umumiy va xususiy ma’nolar» mavzusi bo‘yicha ikkinchi mashg‘ulot amaldagi darslikning «O‘quv yili oxirida takrorlash» bo‘limida takrorlash uchun ajratilgan soat hisobidan tashkil etiladi. Darslikdagi (208-bet) 199-dars – «Shakldosh so‘zlar. Ma’nodosh so‘zlar. Zid ma’noli so‘zlar»ga tegishli mashqlar taqvim-mavzu rejadagi 198-dars – «So‘zning o‘z va ko‘chma ma’nolari» mavzusini takrorlash darsiga singdirib o‘rganiladi. Taqvim-mavzu rejadagi 168-darsda quyidagi materiallardan foydalanish tavsiya etiladi:

### 168-dars. **Ma’nodosh so‘zlarda umumiy va xususiy ma’nolar (ikkinchi mashg‘ulot)**

**514$^{a}$-mashq.** Berilgan gaplardagi katta va kichik so‘zlarini ularning ma’nodoshlari (ulug‘, buyuk, ulkan, bahaybat, mayda, jajji) bilan almashtirib, ular orasidagi ma’no nozikliklarini tushuntirishga harakat qiling.

1. O‘zbek madaniyati tarixida Alisher Navoiyning o‘rni kattadir. (Gaz.) 2. G‘ordan ajdarhoning katta boshi ko‘rindi. (Ertakdan.) 3. Hovuz bo‘yida katta daraxt o‘sardi. (Gaz.) 4. Bu inda kichik bir qush yashaydi. (Ertakdan).

**514$^{b}$-mashq.** Quyidagi she'riy parchani o'qing. Unda qo'llangan ma'nodosh so'zlarni aniqlang va ma'no farqlarini izohlang.

Chunki sen yangi , toza bir kuchsan,
Bilaging bir temir, po'lat kabidir.
Chunki sen yog'du, nurga ko'p o'chsan,
Tilaging bir olov, bir o't kabidir.

(Chustiy)

**Esda tuting.** Ma'nodosh so'zlar nutqni bezaydi, ular nutqning ta'sirchanligini oshiradi.

**514$^{d}$-mashq.** Berilgan gaplardagi ajratib ko'rsatilgan so'zlarga quyidagi qavs ichida berilgan so'zlardan ma'nodoshlar tanlang.

1. Yangi **libos** muborak! (S.Z.) 2. Manzuraxon **odobli** qiz ekan. 3. Toshkent – **go'zal** shahar. 3. Shirin **kalom**, lazzatli **taom** mehmonlarni xursand etdi. (S.A.) 4. Oilamiz a'zolari ahil yashaydilar.

(kiyim, ko'rkam, chiroyli, ovqat, oziq, baodob, madaniyatli, so'z, gap, inoq, totuv).

**514$^{e}$-mashq.** Berilgan so'zlarni ma'no yaqinligiga ko'ra birlashtiring va ular orasidagi ma'no nozikligini aniqlang.

Anglamoq, azamat, baxt, Vatan, iqbol, polvon, mangu, tole, yurt, kuchli, toabad, diyor, ayamoq, saodat, umrbod.

**Uyga vazifa: 514$^{f}$-mashq.** Ko'chiring. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni qavsda berilgan so'zlar bilan almashtirib, ular orasidagi ma'no farqlarini tushuntiring.

1. Bu vazifani tez tushundi (fahmladi, angladi). 2. Pulni behuda sarflamang (xarajat qilmang). 3. Shahar va qishloqlarimiz kundan kunga go'zallashmoqda (ko'rkamlashmoqda). 4. Ko'k (osmon, samo) yuzini bulut qopladi (egalladi, bosdi.)

IV. Taqvim-mavzu rejadagi 176-dars – «Iboralar» mavzusi bo'yicha ikkinchi mashg'ulot amaldagi darslikning «O'quv yili oxirida takrorlash» uchun ajratilgan soat hisobidan tashkil etiladi. Darslikning 209-betidagi ushbu takrorlashga oid mashqlar taqvim-mavzu rejadagi 200-dars «Eskirgan va yangi so'zlar» mavzusini takrorlash darsiga singdirib o'rganiladi. Taqvim-mavzu rejadagi 176-darsda quyidagi materiallardan foydalanish tavsiya etiladi.

## 176-dars. **Iboralar (ikkinchi mashg‘ulot)**

**534[a]-mashq.** O‘qing. Berilgan gap juftlaridagi ajratib ko‘rsatilgan qismlarning ma’nosini qiyoslang. Farqlarini tushuntiring.

1. Kapalak uchib, boshqa gulga qo‘ndi. Ra’noning kapalagi uchib, joyida turib qoldi. 2. Eritilgan mum tez qotadi. Xatoni tuzatishning yo‘li topilmasa, kishining boshi qotadi. 3. Ot aravani tortadi. U o‘z aravasini tortsa ham katta gap. (S.A.) 4. Qo‘ylar to‘rt tomonga qarab qochdi. Qo‘shnilarning oralarida gap qochdi.

**Bilib oling.** Ikki va undan ortiq so‘zning qo‘shilishidan tuzilib, yaxlit ma’no ifodalaydigan birliklar ibora deyiladi. Ular so‘z birikmasi va gap shaklida bo‘ladi.

**534[b]-mashq.** Berilgan lug‘atdan iboralarning ma’nolarini bilib oling. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

**Barq urmoq** – yashnatmoq
**Bel bog‘lamoq** – kirishmoq, boshlamoq
**Lom-mim demadi** – indamadi
**Og‘zi qulog‘iga yetdi** – xursand bo‘ldi
**Tarvuzi qo‘ltig‘idan tushdi** – bo‘shashdi
**Sabr kosasi to‘ldi** – ortiq chiday olmadi
**Tepa sochi tikka bo‘ldi** – jahli chiqdi, qizishdi
**Kapalagi uchdi** – qo‘rqib ketdi.

**534[d]-mashq.** Iboralarning ma’nosini izohlang.

qo‘li ochiq – saxiy
ko‘zi och –
bahri dilni ochmoq –
ko‘kka ko‘tarmoq –
og‘ziga talqon solmoq –
ko‘ngli bo‘sh –
yog‘ tushsa yalaguday –
bir yoqadan bosh chiqarmoq –

**Esda tuting.** Iboralar tarkibidagi so‘zlarni almashtirib bo‘lmaydi. Iboralar oddiy so‘zlar bilan ma’nodosh bo‘lib keladi, lekin badiiyligi, ifodaliligi bilan farqlanib turadi.

**Uyga vazifa: 534[d]-mashq.** Ko‘chiring. Ajratib ko‘rsatilgan iboralarning ma’nolarini tushuntiring.

1. Arzimagan narsaga adi-badi aytishib o‘tirmanglar, o‘g‘lim, uyat bo‘ladi. (H.N.) 2. Shu paytgacha polvonning bir so‘zi ikki bo‘lgan emas. (S.A.) 3. Mana, bugun katta ishga qo‘l urdik. (O.) 4. G‘ulomjon qishloqqa tarvuzi qo‘ltig‘idan tushib qaytdi. (M.Ism.) 5. Cholning dami ichiga tushib ketdi. (A.Q.) 6. G‘ulomjon jon kuydirib ishlar edi. (M.Ism.)

## 8-SINF O‘QUV DASTURIGA KIRITILGAN O‘ZGARTIRISHLAR BO‘YICHA TAVSIYALAR

Taqvim-mavzu rejadagi 46-dars – «Fe’l kesim va ot kesimning ifodalanishi» mavzusi bo‘yicha ikkinchi mashg‘ulot amaldagi darslikning «Kiritma gaplar» mavzusi uchun ajratilgan soat hisobidan tashkil etiladi. Darslikning 122-betidagi 94-dars «Kiritma gaplar» mavzusi o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi o‘quv dasturiga o‘tkazilganligi sababli o‘rganilmaydi. Taqvim-mavzu rejadagi 46-darsda quyidagi materiallardan foydalanish tavsiya etiladi:

### <u>46-dars.</u> **Fe’l kesim va ot kesim (ikkinchi mashg‘ulot)**

**$123^{a}$-mashq.** Gaplarning kesimlarini topib, qaysi so‘z turkumi bilan ifodalanganini va kesimning qaysi turiga kirishini ayting.

1. Bu qarorni amalga oshirishdagi birinchi qadam – o‘qish. (O‘.U.)
2. Mingbuloq o‘zi yaxshi, suvi serob, lekin qarovsiz ko‘chalari tor, qing‘ir-qiyshiq. (O‘.U). 3. Uning Vohid Mirobidov haqidagi gaplari ham qiziq. (O.YO.) 4. Tabiatda hech qanday sirli kuch ta’sirida ro‘y beradigan narsa yo‘q. (J.Abd.) 5. Aytishlaricha, u qishloqqa qaytmaydi. 6. Bol yaxshi, boldan ham bola yaxshi. (Maqol)

**$123^{b}$-mashq.** Ko‘chiring. Har bir gapning kesimini topib, ifodalanishini namunadagidek ko‘rsating.

ot fe’l

N a m u n a: Bizning yurtimiz **chaman**, unda quvnab **o‘saman**. (Qo‘shiqdan)

1. So‘z chertib olinishi, har yoqlama tanlanishi lozim. (O.) Uzoqdan mayin qo‘shiq eshitila boshladi. Men seni endi tanidim, sen Sanobar opaning o‘g‘lisan-a? (P.Q.) Navbahor, ochildi gullar, sabza bo‘ldi bog‘lar. (Muqimiy) Moviy osmonda oq bulutlar suzib yuribdi. Halol yashamoq – xalqqa xizmat qilmoq. Maktab – ilm o‘chog‘i.

**$123^{d}$-mashq.** Ko‘chiring. Har bir gapning kesimini topib, so‘roq bering va qaysi so‘z turkumi bilan ifodalanganini ayting.

1. Gullab yotgan o‘rikzor xira pardaga burkandi. (S.A.) 2. Mehnatga ham zafarga o‘zingiz o‘rgatdingiz. (Zulfiya) 3. Kitob o‘qish kishining so‘z boyligini oshiradi va nutqini o‘stiradi. 4. Ey, do‘stlarim, sizni bu vatan ona kabi sevar shunchalar! (Z.D.) 5. O‘rinsiz g‘azab – o‘zingga azob. (Maqol) 6. Kerakli toshning og‘irligi yo‘q. (Maqol) 7. Gulzordagi oq, qizil, pushti

rang gullar quyosh nurida rang-barang tovlanadi. 8. Takrorlash ta’limning asosidir.

**123[e]-mashq.** Matnni o‘qib, mazmunini so‘zlab bering. Birinchi xat boshidagi gaplarning kesimi qaysi so‘z turkumi bilan ifodalanganini ayting.

**ONA MEHRI**

Ona. Mehri quyoshga teng ona. O‘z shafqati, nuri bilan bolaga qalb bergan, sevgi baxsh etgan – ona! Uning inoyat qilgan yuragi va muhabbati eng avval, onaning o‘ziga qaratilib, bola uni sevdi, ardoqladi…

Tunlari bedor: shirin uyqusini buzib, bolasiga halovat beradigan yoqimli allasi bilan ona farzandiga ruhiy lazzat bulog‘ini ochadi. Bola she’riyat va qo‘shiqqa umrbod maftun bo‘ladi. Bolasini ko‘zimning nuri, dilimning sururi, deydi. Uni yeru ko‘kka ishonmay, ko‘proq uxlab qolsa, xavotirlanadi, qattiqroq yig‘lasa, vahimaga tushadi. Parvona bo‘ladi. Buni qay so‘z bilan tasvirlasa bo‘ladi!

Agar menda ozgina bo‘lsa-da olijanoblik, axloqiy poklik, yaxshilik tuyg‘usi shakllangan bo‘lsa, bularning hammasi Onamdan. Ha, bola eng yaxshi fazilatlarni onadan o‘rganadi. Inson baxtidek ko‘rkamlik, tabiatan ulug‘lik, sog‘lomlik, xushnudlik – hammasi Onadan.

Ona kishilik dahosi yaratgan ilmni ham, tajribalarni ham ishga soladi. Bolani mehnatga o‘rgatadi. Aqlini peshlab, bolaga qurol ushlashdan to nozu ne’matlar yaratishgacha, shirin so‘zlab, o‘zgalar hurmatini topishgacha yo‘l – usullar bilan tanishtiradi. Toymasin, qoqilmasin, deb to‘g‘ri odimlashgacha saboq beradi. Ona – murabbiya. Ular kelajakka zo‘r ishonch bilan qaraydilar. Onalar – po‘lat iroda sohiblari: bolasi yo‘lida hamma qiyinchiliklarni yengadi. Ularning madhi hamisha kuylarda.

(M.Shayxzoda)

**Uyga vazifa: 123[f]-mashq.** Berilgan tayanch so‘zlar kesim vazifasida kelgan gaplar tuzing. Kesimning qaysi so‘z turkumi bilan ifodalanishiga ko‘ra turini izohlang.

yangradi, kuzatdi, erishdik, o‘qish, ko‘p, sinov.

## 9-SINF O‘QUV DASTURIGA KIRITILGAN O‘ZGARTIRISHLAR BO‘YICHA TAVSIYALAR

I. Taqvim-mavzu rejadagi 16-dars – «Bo‘lsa, esa so‘zlari yordamida bog‘langan qo‘shma gaplar» bo‘yicha ikkinchi mashg‘ulot amaldagi darslikning «Murakkab qo‘shma gap haqida ma’lumot» mavzusi uchun ajratilgan soat hisobidan tashkil etiladi. Darslikning 68-betidagi 39-dars – «Murakkab qo‘shma gap haqida ma’lumot» mavzusi o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi o‘quv dasturiga o‘tkazilganligi sababli o‘rganilmaydi. Taqvim-mavzu rejadagi 16-darsda quyidagi materiallardan foydalanish tavsiya etiladi:

### 16-dars. **Bo‘lsa, esa so‘zlari yordamida bog‘langan qo‘shma gaplar. (ikkinchi mashg‘ulot)**

**78$^{a}$-mashq.** O‘qing. Bog‘langan qo‘shma gaplarni turlarga ajrating. Har bir turning mazmun va bog‘lanishini izohlab bering.

1. O‘tloqlar yam-yashil, tizma tog‘lar tepasida esa oppoq qorlar yarqirab turadi. (CH.Ayt.) 2 Soy guvillab oqar va uning muzdek shamoli qirg‘oqda o‘sgan o‘tlarni silkitar edi. (O.) 3. Qaysi kishi maqtanchoq bo‘lsa, o‘sha kishining ko‘ngli har vaqt xijolatda bo‘ladi. (A. N.) 4. Kimning so‘zi to‘g‘ri bo‘lsa, uning xalq oldida e’tibori yuqori bo‘ladi. 5. Tashqarida chaqmoq yaltirar va bahor yomg‘iri salobatli shovillardi. (P.Q.) 6. Men o‘z Farg‘onamni maqtamoq bo‘lsam, yigiti Farhodu, qizi Shirindir. (G‘.G‘.)

**78$^{b}$-mashq.** Ko‘chiring. Berilgan gaplardagi bog‘lovchi vositalarning vazifalari va gapda ifodalayotgan ma’nolarini izohlang.

1. Kim grammatikani o‘rganmagan bo‘lsa, tilning tabiatini bilmaydi: u ko‘pincha noto‘g‘ri yoki mavhum gapiradi. 2. Samimiy aytilgan so‘z sodda bo‘ladi, chunki dilning hukmronligi tildan ustun bo‘ladi. (G‘.G‘.). 3. Agar siz haqiqatan yersiz bo‘lsangiz, tez kun ichida yer sizniki bo‘ladi. (A.Q.) 4. Yomg‘ir tomchilayotgan bo‘lsa ham, havo iliq edi. 5. Hali qish tugamagan bo‘lsa ham, bahor nafasi sezilardi. 6. Ilm qog‘ozga yozish, chizish bilan emas, balki o‘qimoq va uqmoq bilandir. (Zamaxshariy)

**78$^{d}$-mashq.** Gaplarni o‘qing. Bog‘lovchi-yuklamalarning ma’no va vazifasini sharhlang.

1. Arslonqul boshini qashib o‘yladi-da, Injil yoqasiga jo‘nadi. (O.) 2. Zayniddin sovuqdan qaltirasa ham, To‘g‘onbekning chiqishini kutdi. (O.) 3. Yomonligini sezdingmi, uni tezroq fosh qil. (T.M.) 4. Ular ko‘chalarni tomosha qildilar-u, biror tanish uchratmadilar. (N.G.) 5. Vatangadolar

hijratda mol-dunyo topsa-da, hech bir yurtdan o‘xshashini topmagan ona-Vatanning tuprog‘ini ko‘ziga surtish uchun O‘zbekistonga keladilar. (U.Mahkamov.) 6. Eshik g‘irch etib ochildi-da, Darveshali kirdi. 7. U o‘qimishli tavozeli odam bo‘lsa-da, ko‘p jihatlari bilan akasiga o‘xshamas edi. (O.) 8. Vatanga xizmat qilish to‘g‘risidagi va’dalaringiz esingizdami, yo unutib qo‘ydingizmi? (N.G‘)

**Uyga vazifa: 78$^{f}$-mashq.** «Adabiyot» darsligingizdagi biror badiiy parchadan ergashtiruvchi bog‘lovchilar vositasida bog‘langan qo‘shma gaplarga 3–4 ta misol topib yozing.

II. Taqvim-mavzu rejadagi 23-dars – «Ergashtiruvchi bog‘lovchili ergashgan qo‘shma gaplar» mavzusi bo‘yicha ikkinchi mashg‘ulot amaldagi darslikning «Bir necha ergash gapli murakkab qo‘shma gaplar» mavzusi uchun ajratilgan soat hisobidan tashkil etiladi. Darslikning 70-betidagi 40-dars – «Bir necha ergash gapli murakkab qo‘shma gaplar» mavzusi o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi o‘quv dasturiga o‘tkazilganligi sababli o‘rganilmaydi. Taqvim-mavzu rejadagi 23-darsda quyidagi materiallardan foydalanish tavsiya etiladi:

## 23-dars. **Ergashtiruvchi bog‘lovchili ergashgan qo‘shma gaplar (ikkinchi mashg‘ulot)**

**99$^{a}$-mashq.** Berilgan qo‘shma gaplardagi **shuning uchun** bog‘lovchisini **chunki** bog‘lovchisi, **chunki** bog‘lovchisini **shuning uchun** bog‘lovchisi bilan almashtiring. Bunda ular tarkibidagi sodda gaplar tartibi, ergash va bosh gaplarning o‘zaro munosabatida qanday o‘zgarish ro‘y berayotgani haqida xulosa chiqaring.

1. Bu yil cho‘llarda o‘t mo‘l, chunki yomg‘ir ko‘p yog‘di. 2. Kitobni bir kunga olgan edim, shuning uchun uni shu kechasidayoq o‘qib chiqdim. 3.Choyni damlaganimga ancha bo‘ldi, shuning uchun sovib qolgan bo‘lsa kerak. 4. Sinfimizda hamma bir jon-u bir tan, shuning uchun bizda qoloqlar yo‘q. 5. Dangasa bahona izlaydi, chunki mehnat unga yoqmaydi.

**99$^{b}$-mashq.** Sabab ma’nosini bildirib keladigan **chunki, zotan, zero, zeroki** bog‘lovchilarini qo‘llab qo‘shma gap tuzing. Bog‘lovchilarni bir-biri bilan almashtirib ko‘ring va xulosa chiqaring.

**Bilib oling.**

**Zero, zeroki, zotan** bog‘lovchilarida ko‘tarinkilik, kitobiy uslub bo‘yog‘i mavjud.

**99$^{d}$-mashq.** Quyida ikkita sodda gap va ergashtiruvchi bogʻlovchilar berilgan. Ushbu sodda gaplarni bogʻlovchilarning har biri bilan bogʻlab qoʻshma gaplar tuzing. Zarur boʻlganda, gaplarning oʻrnini, soʻzlar va ularning shakllarini oʻzgartiring.

| | | |
|---|---|---|
| Orif aka koʻtargan mavzu chuqurroq edi | / shuning uchun / natijada / oqibatda / shu sababli / shu bois / | koʻpchilik indamay oʻtirdi |
| Baxtim bor | -ki<br>chunki<br>zeroki | har narsa goʻzal koʻrinadi mening koʻzimga |

**Bilib oling.**

Ergashtiruvchi bogʻlovchilar oʻzining maʼnosiga mos ravishda ergash gapga sabab, maqsad, natija, shart, oʻxshatish kabi maʼnolarni beradi. Shuning uchun ergash gapli qoʻshma gaplar «sabab ergash gapli qoʻshma gaplar», «maqsad ergash gapli qoʻshma gaplar» kabi maʼnoviy turlarga boʻlinadi.

**99$^{e}$-mashq.** Qaysi gapda *deb* bogʻlovchisi sabab va qaysi gapda maqsad maʼnosini ifodalab kelayotganligini aniqlang.

1. Ukam oʻqisin deb, «Oygul bilan Baxtiyor» kitobchasini oldim. Ukam oʻqiydi deb, kutubxonadan kitob oldim. 2 Bolalar chiniqsin deb, turli musobaqalar oʻtkazildi. Oʻrtoqlarim kelishdi deb, koʻchaga chiqdim. 3. Oyim charchab qolmasinlar deb, opam bilan birga uylarni yigʻishtirdik. Taassurotini soʻzlayin deb, Zayniddin hujrasiga oʻzini urdi. (O.) 4. Kechalari uxlamay, shu yolgʻizimning umrini uzun qil deb, xudoga nola qilib chiqardi. (S.A.) Avlodlar qolsin deb, mustahkam va koʻrkam inshootlar bunyod etishmoqda.

**Bilib oling.**

**Deb** yarim bogʻlovchisi buyruq va shart mayli, kelasi zamon feʼlidan keyin kelsa, maqsad maʼnosini, oʻtgan zamon feʼllaridan keyin kelsa, sabab maʼnosini bildiradi.

**99$^{f}$-mashq.** Gaplarni oʻqing. Bosh gap va ergash gaplarni bogʻlovchi vositalarni almashtirib qoʻshma gaplarni qayta tuzing va gap mazmunida qanday oʻzgartirishlar yuz berganini ayting.

1. Kim yaxshi oʻqisa, u doʻstlari hurmatiga sazovor boʻladi. 2. Ishga chiqmasa, sir ochiladi. (A.Q.) 3. Boʻtaloq shunday chiroyli, yoqimli ediki,

hammaning havasi kelardi. (O.) 4. Ular biroz jim o‘tirishgach, Akbarxo‘ja gap ochdi. (R.T.) 5. Qishloqqa salqin tushishi bilan, saroyning katta sahnidagi chiroqlar yondi. (I.R.)

**Savol va topshiriqlar.**

1. Qo‘shma gaplar qismlarini bog‘lovchi **chunki** va **shuning uchun** bog‘lovchilari almashtirilganda, gap qurilishi va mazmunida qanday o‘zgarishlar sodir bo‘ladi?
2. Ergashtiruvchi bog‘lovchilar ergash gaplarda qanday ma’no munosabatlarini qo‘shadi? Misol keltiring.
3. **Deb**, ergashtiruvchi bog‘lovchi vazifasida kelganda gapda qanday ma’nolarni ifodalaydi?

**Uyga vazifa: 99$^{g}$-mashq.** Ergash gapli qo‘shma gap tuzing, unda qo‘shimchalarni bog‘lovchi vosita sifatida **natijada, oqibatda, shu sababli, shu bois** ergashtiruvchi bog‘lovchilarining har birini qo‘llash mumkin bo‘lsin.

III. Taqvim-mavzu rejadagi 25-dars – «Ko‘makchili qurilmalar yordamida ergashgan qo‘shma gaplar» mavzusi bo‘yicha mustahkamlash darsi amaldagi darslikning «Bir necha bosh gapli murakkab qo‘shma gaplar» mavzusi uchun ajratilgan soat hisobidan tashkil etiladi. Darslikning 71-betidagi 41-dars – «Bir necha bosh gapli murakkab qo‘shma gaplar» mavzusi o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi o‘quv dasturiga o‘tkazilganligi sababli o‘rganilmaydi. Taqvim-mavzu rejadagi 25-darsda quyidagi materiallardan foydalanish tavsiya etiladi:

## 25-dars. «Ko‘makchili qurilmalar yordamida ergashgan qo‘shma gaplar» mavzusi bo‘yicha mustahkamlash darsi

**Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.**

1. Qanday gaplar qo‘shma gaplar deyiladi?
2. Qo‘shma gaplarning qanday turlari bor?
3. Qo‘shma gaplarning qismlarini bog‘lovchi vositalar qaysilar?
4. Teng bog‘lovchilar vositasida bog‘langan qo‘shma gap qismlari orasidagi munosabat qanday bo‘ladi?
5. Ergashtiruvchi bog‘lovchilar vositasida birikkan qo‘shma gap qismlari qay tarzda munosabatga kirishadi?
6. Qismlari faqat ohang vositasida bog‘langan qo‘shma gaplarni tavsiflang.
7. Qo‘shma gap tarkibidagi qism (sodda gap)lar yozuvda qanday tinish belgilari bilan ajratiladi?

8. Ko‘makchili qurilmalar yordamida ergashgan qo‘shma gaplarga misol keltiring.

**1-topshiriq.** «Qo‘shma gaplarga kim ko‘p misol topadi?» o‘yinini tashkil qiling. Sinf o‘quvchilari 3 guruhga bo‘linadi. Qur’a tashlanib, ularning guruh raqamlari aniqlanadi. So‘ng 5 daqiqa vaqt berilib, 1-guruh bog‘langan qo‘shma gaplarga, 2-guruh bog‘lovchisiz bog‘langan qo‘shma gaplarga, 3-guruh ergash gapli qo‘shma gaplarga misollar topadi va alohida bir varaqqa raqamlab yozib chiqadi. Misollar yozilgan varaqlar o‘qituvchi tomonidan yig‘ib olinadi va misollar o‘rtada muhokama qilinadi. Eng ko‘p va to‘g‘ri misol topgan guruh g‘olib deb e’lon qilinadi.

**2-topshiriq.** «Matndagi qo‘shma gaplarni kim tez va to‘g‘ri aniqlaydi?» o‘yinini o‘tkazing. O‘qituvchi «Adabiyot» darslik-majmuasidan shu kunlarda o‘rganilayotgan badiiy asar matnidan ikki betni tanlab, shu betlarda nechta qo‘shma gap mavjudligini e’lon qiladi. Ularni topish va shu qo‘shma gaplar qismlarini bog‘lovchi vositalarni izohlash uchun o‘qituvchi o‘quvchilarga 5–7 daqiqa vaqt beradi. O‘quvchilar javobni alohida varaqqa yozadilar. O‘qituvchi dastlabki 10 ta javobni yig‘ib olgandan so‘ng o‘yinni to‘xtatadi. Natijalar e’lon qilinadi.

**3-topshiriq.** Gaplarda qo‘llangan bog‘lovchi vositalarning (turlari bo‘yicha) ro‘yxatini tuzing.

1. Shu onda qattiq qarsak chalindi-yu, hamma o‘rnidan turdi. (A.Q.) 2. Daryo tomondan guvillab esib turgan shabada yo‘l bo‘yidagi o‘t-o‘lanlarni tebratar hamda sarg‘ayib borayotgan arpalar undan mavj urar edi. (A.Q.) 3. Goh derazaga olov ilingandek bo‘ladi, goh tomda tunuka ustida nimalardir dahshat bilan yugurayotgandek tuyulardi. (S.Z.) 4. Men xalqqa juda kam o‘rgatganman, lekin o‘zim undan ko‘p narsalarni o‘rganganman. (AS.M.) 5. Qor tingan-u, ammo quyosh bulutlar orasidan chiqa olmay garang. 6. Elmurodga tashakkur e’lon qildi va yonidan o‘z soatini chiqarib taqdim etdi. (SH.) 7. Kech edi… lekin uni ko‘rdi, daf’atan ko‘zi ilindi. (E.A’zamov) 8. Mashrabning ko‘nglidagi butun g‘urbat birdan bulutday to‘zg‘idi va u yerga sakrab tushdi. 9. Bu odat eskirgan bo‘lsa eskirgandir, ammo hozir Malohatga ma’qul edi. (I.R.)

**4-topshiriq.** Guruhlarga bo‘linib, qo‘shma gaplarning qismlarini bog‘lovchi vositalar haqida kichik ilmiy ma’ruza tayyorlang, uni sinfda muhokama qiling.

**Uyga vazifa:** 5-topshiriq «O‘zbekiston – rivojlanish yo‘lida» mavzusida insho yozing. Unda qo‘shma gaplardan foydalaning va ularning qismlarini bog‘lovchi vositalarni izohlang.

Taqvim-mavzu rejadagi 44-dars – «Qo‘shma gap turlarining ma’nodoshligi» mavzusi bo‘yicha ikkinchi mashg‘ulot amaldagi darslikning «Aralash murakkab qo‘shma gaplar» mavzusi uchun ajratilgan soat hisobidan tashkil etiladi. Darslikning **73-betidagi** 42-dars – «Aralash murakkab qo‘shma gaplar» mavzusi o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi o‘quv dasturiga o‘tkazilganligi sababli o‘rganilmaydi. Taqvim-mavzu rejadagi 44-darsda quyidagi materiallardan foydalanish tavsiya etiladi:

## 45-dars. **Qo‘shma gap turlarining ma’nodoshligi (ikkinchi mashg‘ulot)**

**165[a]-mashq. 1-topshiriq.** Berilgan sodda gap juftliklaridan quyida berilgan bog‘lovchi vositalar yordamida qo‘shma gap hosil qiling. Bunda kesimning bo‘lishli-bo‘lishsizligini, mayl-zamon shakllarini, gaplarning joylashish tartibini o‘zgartirishingiz mumkin.

Gap juftliklari:

1. Bahor keldi. Dalada ishlar avj oldi. 2. Xonada chiroq o‘chdi. Tomosha boshlandi. 3. Orzularimiz ko‘p. Maktabni tugatyapmiz.

Bog‘lovchi vositalar:

1) ohang (yozuvda tinish belgilari);
2) teng bog‘lovchilar: **va, hamda, ham…ham, yoki, ammo, lekin, biroq…;**
3) bog‘lovchi-yuklamalar: **-u, (-yu),-ku, -mi, hamki,…;**
4) ergashtiruvchi bog‘lovchilar: agar, basharti, modomiki, **-ki, chunki, shuning uchun, zero (zeroki), natijada, shu sababli, …;**
5) nisbiy so‘zlar: **qachon… o‘shanda, qayerda… o‘sha yerda, qancha… shuncha…**

N a m u n a : 1. Bahor keldi, dalada ishlar avj oldi. 2. Bahor keldi-yu, dalada ishlar avj oldi. 3. Bahor keldi – dalada ishlar avj oldi. 4. Bahor keldi va dalada ishlar avj oldi. 5. Ham bahor keldi, ham dalada ishlar avj oldi. 6. Bahor keldi, natijada dalada ishlar avj oldi…

**2-topshiriq.** Yuqorida bajarilgan mashqlar asosida quyidagi savollarga javob bering.

1. Yuqorida berilgan bog‘lovchilardan ayrimlari bilan sodda gaplarni qo‘shma gapga aylantirish mumkin emas. Buning sababi nimada? Fikringizni isbotlang.

2. Berilgan sodda gaplarni ko‘rsatilgan bog‘lovchi vositalarning ikkitasi (uchtasi, to‘rttasi…) bilan bog‘lab, qo‘shma gaplar tuzish mumkinmi? Qismlari har xil bog‘lovchilar vositasida bog‘langan bunday qo‘shma gaplar orasida qanday farq bor?

**165^b-mashq.** Mazmuni o‘zaro yaqin, lekin har xil bog‘lovchi vositalar bilan bog‘langan qo‘shma gaplar tuzing. Ularning orasidagi farqni izohlang.

N a m u n a : 1. Eshik ochildi, xonaga rassom kirib keldi.

2. Eshik ochildi va xonaga rassom kirib keldi.
3. Eshik ochildi-da, xonaga rassom kirib keldi.
4. Eshik ochildi-yu, xonaga rassom kirib keldi.
5. Eshik ochildi, chunki xonaga rassom kirib keldi.
6. Xonaga rassom kirib keldi, shuning uchun eshik ochildi.
7. Qachon eshik ochilsa, xonaga rassom kirib keladi.

*Farqlar.* 1-va 2-gaplarda harakatlarning birin-ketin sodir bo‘lishi, 3-gapda ish-harakatlarning bir-biridan uzilmaganligi, 4-va 5-gaplarda sabab, natija ma’nolari, 6-,7-gapda payt, shart va o‘zaro mutanosiblik, bog‘liqlik ma’no nozikliklari ifodalangan.

**165^d-mashq.** She’rni o‘qing va har bir tinish belgisining vazifasini sharhlang.

## KASHMIRDA

Bir qamar siymoni ko‘rdim baldai Kashmirda,
Ko‘zlari masxur-u yuz jodu etur tasxirda.
Zarra-zarra zar sochar boshing‘-a har kun oftob,
Subh kelgach, kecha yotib chashmai iksirda.
Bir ko‘rib chohi zaqan Horut ila Morut ikov,
Chohi Bobil ichra qolmishlar bo‘lak tadbirda.
Lam’al qiyg‘och ko‘zidin aning barqi nigoh,
Tezlik javharlari gar bo‘lsa har shamshirda.
Qoshi uzra xolining asroridin bir nuqtadur,
Surayi Nun o‘qidim payvasta har tafsirda.
Forig‘ ermas hech kim ul dilraboning ishqidin,
Zulfiga dilbastalig‘i har bir javon-u pirda.
Aydim: «Ey, jon ofati, zulfingga bo‘lmishman asir!»
Aydi: «Bu savdoni qo‘y, umring o‘tar zanjirda!».
«Nuqta lab ustida bejodur», – dedim, aydi kulib:
«Sahv qilmish kotibi qudrat magar tahrira».
Aydi: «Ey bechora, qilding na uchun tarki vatan?»
Man dedim: «G‘urbatda Furqat bor ekan taqdirda!»

(Furqat)

**Savol va topshiriqlar.**

1. Nima uchun qo‘shma gaplar qismlarini bog‘lovchi vositalarda ma’nodoshlik va vazifadoshlik mavjud?
2. Qo‘shma gaplar qismlarini bog‘lovchi vositalar ma’nodoshligining lug‘aviy ma’nodoshlik (chiroyli// go‘zal), grammatik ma’nodoshlik (akamga oldim// akam uchun oldim) bilan qanday aloqasi bor?
3. Ohang, teng bog‘lovchi va bog‘lovchi-yuklamalar vazifadoshligiga misollar keltiring.

**Uyga vazifa: 165$^{e}$-mashq.** Berilgan qo‘shma gaplar qismlari orasidagi bog‘lovchi vositalarni ularning vazifadoshlari bilan almashtirib ko‘chiring.

1. Zal jim, xalq parda ochilishini kutar edi (A.Q.) 2. Qo‘shning tinch – sen tinch. (Maqol)

V. Taqvim-mavzu rejadagi 50-dars – «Ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarda tinish belgilarining qo‘llanishi» mavzusi bo‘yicha ikkinchi mashg‘ulot amaldagi darslikning «Qismlari uyushgan murakkab qo‘shma gaplar» mavzusi uchun ajratilgan soat hisobidan tashkil etiladi. Darslikning **75-betidagi** 43-dars – «Qismlari uyushgan murakkab qo‘shma gaplar» mavzusi o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi o‘quv dasturiga o‘tkazilganligi sababli o‘rganilmaydi. Taqvim-mavzu rejadagi 50-darsda quyidagi materiallardan foydalanish tavsiya etiladi:

## 51-dars. Ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarda tinish belgilarining qo‘llanishi (ikkinchi mashg‘ulot)

**Bilib oling.**

Ko‘chirma gaplar (agar matn dialog shaklida bo‘lmasa) doim qo‘shtirnoq ichida yoziladi.

Muallif gapi va ko‘chirma gapning qurilmadagi o‘rniga ko‘ra, tinish belgilarining qo‘llanishi quyidagicha bo‘ladi:

1. Muallif gapi oldin, ko‘chirma gap keyin joylashganda:
   a) darak gap bo‘lsa: **M: « K »**
   b) so‘roq gap bo‘lsa: **M: « K? »**
   d) buyruq yoki undov gap bo‘lsa: **M: «K! »**
2. Ko‘chirma gap oldin, muallif gapi keyin joylashganda:
   a) darak gap bo‘lsa: **«K», ---- m.**
   b) so‘roq gap bo‘lsa: **«K? » --- m.**
   d) buyruq yoki undov gap bo‘lsa: **«K! » --- m.**
3. Muallif gapi ko‘chirma gapning o‘rtasida joylashganda:
   a) darak gap bo‘lsa: **«K, --- m. --- K».**

b) so‘roq gap bo‘lsa: **«K, --- m, --- K?».**

d) buyruq yoki undov gap bo‘lsa: **«K,--- m,--- K!».**

4. Ko‘chirma gap muallif gapining o‘rtasida joylashganda:

a) darak gap bo‘lsa: **M: «K», --- m.**

b) so‘roq gap bo‘lsa: **M: «K? ». --- m.**

d) buyruq yoki undov gap bo‘lsa: **M: «K! » --- m.**

**Savollarga javob bering.**

1. Gap qurilmasi ko‘chirma darak gap bilan tugasa, nuqta qo‘shtirnoq ichiga qo‘yiladimi yoki qo‘shtirnoqdan tashqaridami? Ko‘chirma gap undov, buyruq gap bo‘lsa-chi?
2. Muallif gapi darak gap bo‘lsa va u ko‘chirma gap ichida kelsa, muallif gapidan keyin qanday tinish belgi qo‘yiladi?
3. Ko‘chirma darak gap muallif gapidan oldin yoki o‘rtasida kelsa, ko‘chirma gap oxirida qanday tinish belgisi qo‘yiladi? Ko‘chirma gap so‘roq, undov gap bo‘lsa-chi?

**204ᵃ-mashq.** Berilgan gaplarda qo‘llanilgan tinish belgilarining vazifalarini sharhlang.

1. «Bilsangiz, haydalish kuyini chalingiz, ajralish kuyini chalingiz!» – dedi Otabek sarxush tovush bilan. (A.Qod.) 2. Solih Mahdum qizidan achchiqlanib dedi: «Juda sustqadamsan-a, Ra’no, seni talqon yeb suvga yuborgan kishi qaytib kelguningcha tiqilib o‘ladi!» (A.Qod.) 3. «Humoyunjon, – dedi Xonzoda begim iltimoskorona tovush bilan. – Ma’sum bolalarning kurashi bezarar, ammo toj-u taxtli og‘a-inilarning adovati qanchalik baxtsizliklar keltirishini o‘zingiz ko‘rib turibsiz» (P.Q.) 4. Akbar sarkardalarni mashvaratga yig‘ib shunday dedi: «O‘g‘il bilan jang qilish taqdirimda bor ekan! Ikki yuzta harbiy kema tayyor qilinsin». (P.Q.) 5. «Jaloliddinning ketmoni dalasiday keladi», – deydi el. (T. Murod)

**204ᵇ-mashq.** Ko‘chirma gap va muallif gapini topib, ularning o‘rnini aniqlang. Tinish belgilarining qo‘yilishiga e’tibor bering.

1. «Qiziq ekan, Ra’noga ko‘rsataman buni…», – dedi u o‘z-o‘zicha ruhlanib. (H.N.). 2. «Siz meni mazax qilmay qo‘ya qoling!» – dedi zarda qilib xo‘jayin. (N.Safarov) 3. «Dalilim yo‘q, – dedi Bo‘taboy qo‘rslik bilan, – shunga chaqirganmidingiz?» (S.A.) 4. «Nima ko‘rdingiz?» – dedi polvon. «Hech narsa», – dedi qo‘rboshi. (A.Q.) 5. Navbat o‘ziga kelganda, ayvondan turib Mahdum baqirdi: «Ra’no, akangning qo‘liga suv quy!» (A.Qod.) 7. «Bozorni ko‘rdingmi? Qo‘y bozoriga bordingmi?» – so‘raydi dadam, muloyim tabassum bilan. (O.)

